



MAKTABLARDA VOLEYBOL TO‘GARAGINI KLASTER ASOSIDA TASHKIL QILISH

Mirzayev Karim Mamarasul o‘g‘li

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Jismoniy madaniyat va sport kafedrasini
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jismoniy tarbiyaning bo‘limi bo‘lgan voleybol sport turini o‘quvchilarni qiziqishini inobatga olib sinfdan tashqari to‘garaklar tashkil etish o‘quvchilarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish va sog‘lom turmish tarzini yaratish msalasiga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Voleybol texnikasi va taktikasi o‘rgatish shaxsiy sifat va xususiyatlarini aniqlash.*

Sport maktablarining amaldagi dasturlarini tahlil qilish, o‘quvchilarni boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlariga tanlash, ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida yosh voleybolchilarni bitiruv va joriy sinovlariga asosan jismoniy rivojlanganligi, jismoniy va texnik tayyorgarligi belgilarini hisobga olish asosida o‘tkazilishini ko‘rsatadi. Shu bilan bir vaqtda so‘nggi yillarda respublikamizda keng tarqalgan sport turlaridan biri voleybolning rivojlanishida yaqqol ko‘zga tashlanadigan tomonlaridan biri kombinatsion o‘yining kuchayishi hisoblanadi. Bu esa yosh voleybolchilarning o‘yinda fikrlashlari va taktik tayyorgarliklariga bir qator qat‘iy talablarni qo‘yadi. Voleybol bilan shug‘ullanish uchun bolalarni tanlashda boshqa ko‘rsatkichlar bilan birgalikda faqatgina jismoniy rivojlanganlik, jismoniy va texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari yordamida aniqlash mumkin bo‘lmagan o‘yin faoliyatiga qobiliyatlarini rivojlantirish va namoyon etishga sabab bo‘luvchi shaxsiy sifat va xususiyatlarini aniqlash alohida ahamiyatga ega.

O‘qitish davomida har bir yildan so‘ng yosh sportchilarni tayyorlashga kerakli tuzatishlar kiritib boriladi, shu jumladan, yillik davrida mashqlar komponentlarini, hajmini taqsimlashga va mashg‘ulotlar yo‘nalganligiga tuzatishlar kiritiladi. Birinchi o‘quv yiliga nisbatandagidan ikkinchi o‘quv yilida umumiy jismoniy tayyorgarligiga ajratiladigan vaqtni qisqartirish hisobiga taktik va integral tayyorgarligi soatlari soni oshirib boriladi. Tayyorlashning ikkinchi yili davomida o‘rgani-layotgan texnik uslublar hamda taktik harakatlar to‘plamini kengaytirish masalasi ham hal etiladi. O‘quv-mashq bajarish guruhlarida talablar yanada oshadi, masalan, yil bo‘yicha soatlar hajmi bu erda 520 soatga etadi, ya’ni boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlariga qaraganda 104 soatga ko‘p bo‘ladi. Tayyorgarlik turlari hajmlarini taqsimlashda, 25% foizi texnik, 28% foizi taktik, 21% foizi integral tayyorgarlikka sarflanadi.

Olib borilgan mashg‘ulotlar va o‘tkazilgan tajribalarga ko‘ra, yil bo‘yicha soatlarni bunday taqsimlash vosita va metodlarini to‘g‘ri tanlaganda, yosh voleybolchilarni tayyorlashda, ularning yoshi va jismoniy qobiliyatlarini hisobga olib birinchi bosqichda qo‘yilgan vazifalarni hal etishga imkon beradi. Ularning yoshi va jismoniy



qobiliyatlarini hisobga olish, tayyorlash strategiyasini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich va umumiy tayanch tayyorgarligida har tomonlama tayyorlash, yosh sportchi-larning jismoniy sifatlarini rivojlantirib, ularning sport natijalarini o‘sishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishini hisobga olish kerak. Shuning uchun yosh voleybolchilarni tayyorlash birinchi va ikkinchi bosqichlarida foydalilaniladigan vositalar tayyorlash uchunchi va to‘rtinchi bosqichiga qaraganda, kamroq xosliklarga egaligi boshlang‘ich tayyorlash davrining muhim xususiyatlari hisoblanadi. Shu bilan birga boshlang‘ich davr uchun yosh voleybolchilarga me’yoriy talablar faqat jismoniy va texnik tayyorgarlik bo‘yicha ko‘zda tutilgan. Faqatgina ancha keyingi bosqichlarida asosan, musobaqalashish faoliyati natijalari bo‘yicha taktik harakatlarni baholashdan foydalilaniladi. Mazmunan turli xildagi yugurishlar, sakrashlar, uloqtirish va boshqa harakatlar tashkil etgan o‘yinlar harakatli o‘yinlar deb ataladi.

Bunday yondashishni to‘g‘riligiga shubha qilmay, ular pedagogik mazmundagi muammolarni va harakatli o‘yinlari ahamiyatini hamda shunga mos ularni turlarini o‘rganishda to‘la mosligini, ularga xos alohida xususiyatlari sababli o‘zini oqlamasligini ko‘ramiz. Yuqorida aytib o‘tilgan ishda, harakatli o‘yinlarini turlarga ajratish tajribasiga urinib ko‘rilgan, uni e’tiborga olmaslik aslo mumkin emas. Raqibi bilan to‘qnashmay va u bilan kurashda ishtirok etmay o‘yinchilar kurashlari belgisi bo‘yicha jamoani (barcha o‘yinchilarning birgalikda ishtirok etishi va navbat bilan ishtirok etishi bilan hamda olib boruvchi va olib boruvchisiz, jamoasiz) estafetalarni farq qilish taklif etiladi. Harakatli o‘yinlarni ham, harakatlanish harakatlari bo‘yicha o‘xshatish (taqlid qilish harakatlari bilan), yugurib o‘tish, to‘siqlardan oshib o‘tish, to‘p, tayoqchalar va boshqa predmetlar bilan yo‘l topish va shu kabilar hatto mustaqil joylarni topish o‘yinlari, tayyorgarlik (sportga) o‘yinlari turlariga ajratish taklif etiladi.

Boshqa, yanada zamonaviy, bevosita aynan harakatli o‘yinlarga bag‘ishlangan ishda, ular bizning fikrimizcha, ancha aniq ifodalanadi: «harakatli o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘yin mazmunida harakatlarning (turish, sakrash, uloqtirish, to‘pni uzatish va ilib olish)yaqqol ifodalan-gan roli hisoblanadi. Mana shu harakatlanish jarayonlari, uning sugenetik (mavzusi, g‘oyalari) asoslanadi, ular o‘yin maqsadiga erishish yo‘lida qo‘yilgan turli to‘siqlar va qiyinchiliklarni engib o‘tishga yo‘naltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev A.T Voleybol texnikasini o‘rgatish. Myfallim xэм узлиksiz biliimlendiriý Nukus 2022 yil №2son
2. Jumayev A.T Saurboyev U.A O‘quvchilarda klaster asosida harakatli o‘yinlar o‘tkazish. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM WASHINGTON 2022 YIL 25-MART
3. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol // Oliy o‘quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2009. - 77 b.



4. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. - 208 b.
5. Boltayev Z.B. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. – Samarqand, 2019. – 360 b.
6. Boltayev Z.B., Umarov K.M. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi. (Voleybol). O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2020. – 225 b.
7. Isroilov Sh.X. Voleybol. Olimpiya zahiralari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Tasvir, 2008. – 144 b.
8. Boltayev Z.B., Umarov K.M. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi. (Voleybol). Darslik. – Samarqand, 2022. – 358 b.
9. Umarov K.M. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Voleybol) // O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2021. – 253 b.